

РЕЗЮМЕ. Мақолада стилистик фигура сифатида маълум бўлган апопсиопеза– яшириш ҳақида сўз юритилади. Унинг кўп функционал қўлланилишини маълум бир системалашган турларга ажратишга бағишладик.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается и обсуждается вопрос систематизации многофункционального явления апопсиопеза – умолчание, известного как стилистическая фигура.

SUMMARY. The article explores and analyzes the systematization of the multifunctional phenomenon of aposiopesis as a stylistic figure.

HOZIRGI O'ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIY TILLARIDA KOMPONENT TARKIBI TURLI XIL BO'LGAN SINONIM FRAZEMALAR

O.Xaytbayev – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidaqi Nukus davlat pedagoqika instituti

Tayanch so'zlar: frazema, komponent, sema, sinonim frazema, semantik komponent.

Ключевые слова: фразема, компонент, сема, синонимическая фразема, семантический компонент.

Key words: phrase, component, seme, synonymous phrase, semantic component.

Tillardagi frazeologik lug'atlar, jumladan, prof. Sh.Rahmatullayev tuzgan "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (1992), jamoa tomonidan tuzilgan "O'zbek tili frazeologik lug'ati" (2022), J.Eshbaevning "Qaraqalpaq tilini qisqasha frazeologiyaliq so'zligi" (1985), Q.Paxratdinov va Q.Bekniyazovlar tomonidan tuzilgan "Qaraqalpaq tilini frazeologizmler so'zligi" (2018), G.Aynazarova tomonidan tuzilgan "Qaraqalpaq tilinde tenles eki komponentli frazeologizmler so'zligi" (2023), G.Aynazarova va G.Atabaevlar tomonidan tuzilgan "Qaraqalpaq tilinde sanliqlar menen kelgen frazeologizmler so'zligi" (2023) va boshqa manbalarning ko'rsatishicha, sinonimiya munosabatiga kirishuvchi frazemalarning hammasining komponentlari doimo teng bo'lamasligini ta'kidlab o'tadi.

Nazariy adabiyotlarda bir sinonimik uyaga ko'pi bilan to'rt yoki besh sinonim frazema birlashishi aytiladi. Lekin ularning hammasining ham iborani tashkil qiluvchi komponentlari soni teng bo'lmaydi. Sinonim frazemalar komponentlari ko'pchiligida har xil bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *Nari yoq-beri yog'(i)dan o'tib ketmoq – suyak-suyagidan o'tib ketmoq* nima kimning ruhiga chuqur ta'sir qilmoq ma'noli sinonim frazemalarning birinchisi tarkibida yetti komponent, ikkinchisida to'rt komponent qatnashgan. Birinchi frazemaning komponentlari ravish+ot+ravish+ot+fe'l+fe'l qolipida, ikkinchisidiki ot+ot+ravishdosh+fe'l qolipida tuzilgan: *Bu gap ham Lutfinisaning nari yoq-beri yog'idan o'tib ketibdi* (Mirmuhsin). *Majlisga qo'ymanglar, juda og'ir bo'ladi, mana shu devoriy gazetasidagi ham nari yoq-beri yog'idan o'tib ketdi, jon do'stim* (I.Rahim). *"Kim eding, nari borsa bitta xotin kishisan-da", – degan ta'nalar suyak-suyagimdan o'tib ketdi* (S.Zunnunova). Lekin *Xo'jabekovning keyingi "nasihat"i suyak-suyagidan o'tib ketdi* (S.Anorboyev). (O'TFL, 179, 241).

Qoraqalpoq tilida: *bir oq penen eki qoyan atw – bir siyrdan eki teri aliw*. Frazemalar semantikasida "Bir narsadan ikki barobar foyda ko'rmoq, ikki ishni birdaniga bitirmoq" semalari mavjud. Birinchi frazema komponentlari son+ot+yordamchi so'z+son+ot+fe'l, ikkinchi a'zo son+ot+son+ot+fe'l qolipida tuzilgan. Birinchisida olti komponent, ikkinchisida beshta komponent qatnashgan. Misollar: *Bir oq penen eki qoyandi atqani'ndi kormeyse' be?* (I.Yusupov). *Olar ozleri qanday adamlar bir siyrdan eki teri alajaq pa!* – dedi de esikke qaray umtildi (X.Seytov).

O'z(i)ga xon o'z(i)ga bek – o'z(i) xon, ko'lanka(si) maydon kim nimani xohlasa, shuni qilishga huquqli. Sinonimi: **o'z biylig(i) o'z(i)da kimning? o'z(i)ga xon, o'z(i)ga bek**

Frazema olmosh+ot+olmosh+ot qurilishli bo'lib to'rt komponentli sifat frazema hisoblanadi: *Xotinlar "Kimsan oqsoqolning xotinlarimiz" deb kekkayishib, o'zlariga xon, o'zlariga bek bo'lib, xizmatkorlarning adabini berib, bilgan ishlarini qilib yuribdilar* (P.Tursun). *"Bir og'iz aytib ketsangiz bo'lmaydimi! Yo o'zingiz xon, o'zingiz bekmisiz?" – "Uyqungizni buzmay dedim. Vaqt ziq edi"* (S.Anorboyev). [Mashriqxo'jayev] *o'zlari xon,*

ko'lankalari maydon har kuni ertalab tamanno yurish qilib tushga yaqin ishga yetib keladilar. Lekin ish stolida ko'pincha do'ppilari turadi. O'zlari sekretarga "Men ketdim" degandek qarash qilib ko'ngillari tusagan tomonga ravona bo'lادilar (A.Muhiddin). (O'TFL, 325, 329).

Mazkur frazemalar to'rt komponentli bo'lib, uning **o'z biyligi o'zida** sinonimi uch komponentli. Frazemaning semantik komponentida "nimani xohlasa, shuni qilishga huquqli" semalari mavjud. Komponentlari olmosh+ot+olmosh tarzida tuzilgan:

"Ana o'sha Ahmadga ham tayinlab qo'ysalaring: Rahimni to'dadan chiqarib tashlamasa! Tag'in o'z biyligi o'zida bo'lib qolib, tunov kungiday bir xarxasha orttirmasin..." (H.Nazir. "So'nmas chaqmoqlar"). (O'TFL, 609).

Osh(i)ni oshab, yosh(i)ni yashamoq – yosh(i) bir joyga borib qoldi kim? o'zining umrning poyoniga yetay deb qolmoq, ko'p qismini yashab bo'lmoq

Bu frazemaning komponentlari ot+fe'l+ot+fe'l qolipida tuzilgan.

Saidg'ozu buzuq emish deb tuhmat qilishsa, ko'pchilik ishonmasligi mumkin, chunki oshini oshab, yoshini yashab qolgan bola-chaqali odam (S.Anorboyev). *"Anorxon, qizim, – dedi kampir, – yoshimni yashab, oshimni oshab bo'ldim. Ammo halqumimda birgina narsa tiqilib turibdi. To'yingni ko'rsam deyman. Bisotim yetarli. Ko'zimning tirikligida to'y qil, bolam"* (I.Rahim). *Yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa ham, yuragida o'ti bor* (A.Qahhor). *Murodovani yoshi bir joyga borib qolgan keksa partiya xodimi deb tasavvur qilgan edi* (I.Rahim). (O'TFL, 89, 207).

Qoraqalpoq tilida *Ala tana arqaga, qara tana qublağa ketiw* frazemasini mavjud bo'lib, uning semantik tarkibida "ahillik bo'lmay, har kim har tomonga ketmoq" semalari mavjud. Tarkibi yetti komponentdan iborat. Unga lug'atda quyidagicha izoh berilgan:

Ala tana arqaga, qara tana qublağa ketiw – pitirap ketiw, har kim har jaqqa ketiw, buliniw, toz-tozi shigiw, wayran boliw'.

– *Endi jynap aliw qiyin, ala tana arqaga, qara tana qublağa ulagup ketken.* (K.Mambetov. "Posqan el").

Mazkur frazemaning *uli urimga, qizi Qirimğa ketiw* sinonimi mavjud bo'lib, u besh komponentdan iborat:

Malunuzdi alhp, ulimiz urimga, qizimiz Qirimğa ketse, seni de aman qutqarmasa, biziñ niyetlep mal bergen qudamiz bunda ketse basqa daryalardin suwin iship, bolmaspeken bir qıyan-kesti! (Sh.Seytov. "Xalqabad"). (QTTEKFS,7).

Qoraqalpoq tilida:

Bir jeñnen qol, bir jagadan bas shıgarıw – birew arqaw, birew eris bolıw Frazema semantikasida "Bir-birovga yordamlashmoq, ko'maklashmoq, ahil bo'lmoq, hamjihat bo'lmoq" semalari mavjud. Birinchi a'zoning komponentlari son+ot+ot+son+ot+ot+fe'l, ikkinchi a'zoning komponentlari son+ot+son+ot+fe'l qolipida tuzilgan ravish sinonim frazema. Misollar:

*Birgelesip bas shıgarsaq jagadan,
Bir jeñseden qol shıgarsaq abadan.*

*Qarańǵıdan shıqsa eger dawısıń,
Kóksimde jan bolsa, izlep tabaman.
Jol kórseter juldız boldıń, ájaǵa.* (G.Dáwletova).

Variantı: **bir jaǵadan bas, bir jeńnen qol shıǵarıw.**

– Kolxoz degen **bir jaǵadan bas, bir jeńnen qol shıǵarıw** degen sóz. (S.Bahadırova).

Usınday, **birew arqaw birew, eris bolıp**, birewge birew arqa súyep atırǵan zamanda úyrektiń palapanınday bir óziń bir qumniń arasında shetlep, neǵıp júrgen adamsań, ya aq úyli etilgen baymısań? degen gúdigin de ayttı. (Sh.Seyitov. “Xalqabad”).

“dard» desa (...), “balo” demoq kim? aytishmoq, e’tiroz javobini bermoq. Variantı: **“dard” desa (...), “o’l” demoq.** Sinonimi: **gap qaytarmoq kim? kimga? “ali” desa (...), “bali” demoq kim?**

...“dard” desa, “balo” demasak, kunimiz yana besh battar qora deyavering! (M.Ismoilıy. “Farg’ona tong otguncha”). Abdurasul ham bo’sh kelmadi – “dard” desa, “o’l” deb turaverdi. (P.Tursun. “O’qıtuvchi”).

Frazema to’rt komponentdan iborat. Unga sinonim bo’lgan **gap qaytarmoq** frazemasi esa ikki komponentdan tuzilgan.

Gap qaytarmoq kim? 1 nimaga? yoki kimga? javob qilmoq. Sinonimi: **javob bermoq 1 kim? yoki nima? nimaga? yoki kimga? Javob qaytarmoq 1 kim? nimaga? yoki kimga?** Antonimi: **savol bermoq kim? kimga?**

Avvalo Jo’raxonning uch-to’rt yashar kichkina qizday **gap qaytarishi** onasiga qattiq botmadi. (M.Ismoilıy. “Farg’ona tong otguncha”). Xolida eriga boshqa **gap qaytarolmadi.** (I.Rahim. “Chin muhabbat”).

2. **kimga?** e’tiroz javobini bermoq, aytishmoq. Variantı: **so’z qaytarmoq; gap(i)ga gap qaytarmoq kim? kimning? so’z(i)ga so’z qaytarmoq.**

Oyi, men siznikiga kundosh ko’rib kelgan emasman. **Gap qaytarishga** o’zingiz majbur qildingiz. (S.Zunnunova. “Latta”). U o’jarlik qilib **so’z qaytarish** u yoqda tursin Marhamatning va onasining aftiga biron marta tik boqolmadi ham. (H.Nazir. “So’nmas chaqmoqlar”). Endi tag’in **so’z qaytarding so’zimga.** (S.Abdulla. “Tohir va Zuhra”). (O’TFL, 170).

Qoraqalpoq tilida: **Barar jeri, batar kóli joq – mákan jayı joq.** Variantı: shıǵar tawı, batar kóli joq.

– Qayaqqa baramız, qáerde panalaymız – buyaǵı jumbaq edi bizge. **Barar jerimiz, batar kólimiz joq** edi ırasın aytısam (M.Nızanov. “Ashiq bolmaǵan kim bar”).

Mazkur frazema besh komponentdan iborat. Uning quyidagi sinonimi olti komponentdan tuzilgan:

Bararına esik joq, kirerine tesik joq – mákan-jayı joq.

Bararına esik joq,

Kirerine tesik joq,

Sonda turıp Gúlayım,

Bardi-joqtı anılasa.

Qorǵanshaǵa súyenip,

Qulaǵın salıp tıńlasa. (“Qırıq qız” dástanı).

Mana bu sinonimi ham olti komponentdan iborat:

Bararına jeri joq, batarına kóli joq – mákan-jayı joq.

Variantı: **barar belli jeri joq, batarına kóli joq.**

Mınaw júz tozıp xalqın,

Bararına jeri joq,

Batarına kóli joq,

Kiyimi joq ústinde. (“Qırıq qız” dástanı).

Barar belli jeri joq,

Jan jaǵına qaradı.

Batarına kóli joq,

Atıraptı sholadı. (“Qırıq qız” dástanı).

–Isıq kóriner kózine,

Hár kim elinen ayırılsa.

Qanday arıslan bolsa da,

Jekkelik eler ózine.

Bararına eli joq,

Batarına kóli joq. (“Edige” dástanı).

Variantı: **Bararına jeri joq.**

Qudaǵay kelip tońqıldadı, men úyden shıǵıp, bararına jeri joq adam bolagaldım. (M.Nızanov. “Sen kúymeseń, men kúymesem...”). (QTTEKFS, 21).

Qoraqalpoq tilida **awıl aymaǵı menen, bota taylaǵı menen** frazemasi olti komponentdan tashkil topgan. Lug’atda shunday izohlangan:

Awıl aymaǵı menen, bota taylaǵı menen – hámmesi, barlıǵı, adam qalmay.

Awıl aymaǵı menen, bota taylaǵı menen júriw biziń awılda dástúr bolǵan. (G.Esemuratova. “Bári ómir haqqında” gúrrinler toplımı). **Sin.:** **jeti jasar baladan jetpis jasar ǵarrıǵa shekem, tayda tuyaq qalmay.**

Frazemaning sinonimi bo’lgan **jeti jasar baladan jetpis jasar ǵarrıǵa shekem** frazemasi yetti komponentdan iborat.

Jeti jasar baladan jetpis jasar ǵarrıǵa shekem – hámmesi, barlıǵı, adam qalmay.

– *Óytpegende bolatuǵın edi, sebebi, kesheginiń ózinde tayda tuyaq qalmay jıynaldı.* (M.Nızanov. “Tańlamalı shıǵarmalar, IV tom). **Var.:** **jetpis jasar ǵarrılar, jeti jasar balalar.**

– **Jetpis jasar ǵarrılar,**

Jeti jasar balalar.

Qara kún tuwıp xalqına,

Jurtıń, xanıń zar júlar. (“Qırıq qız” dástanı).

Sin.: **Awıl aymaǵı menen, bota taylaǵı menen; tayda tuyaq qalmay.**

Mazkur frazemaning sinonimi bo’lgan **tayda tuyaq qalmay** frazemasi esa uch komponentdan iborat.

Qádeli ǵarrı, jigerli jigit – hámmesi, barlıǵı, tolıǵı menen

Var.: **eńkeygen ǵarrı, embeklegen bala, eńkeygen ǵarrı, embeklegen jas;**

Sin.: **awıl aymaǵı menen, bota taylaǵı menen; jeti jasar baladan jetpis jasar ǵarrıǵa shekem.**

...qádeli ǵarrı, jigerli jigit, eńkeygen ǵarrı, embeklegen jas qalmay keliń dep, áke bārshesin úsh kúńge deyin tárbiya qılıp, bārshesiniń pátiyasın alıp... (“Qoblan” dástanı). **Eńkeygen ǵarrıdan, esin bilmegen balaǵa shekem jıladı.** (A.Sadıqov. “Berdaq” romanı). (QTTEKFS, 53)

Xulosa qilib aytganda, bir sinonimik uyaga ko’pi bilan to’rt yoki besh sinonim frazema birlashishi mumkin. Lekin ularning hammasining ham iborani tashkil qiluvchi komponentlari soni teng bo’lmaydi.

Adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. – Toshkent: “Qomuslar” bosh tahririyati, 1992. 379-b.
2. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O’razova I., Rixsiyeva K., O’zbek tilining frazeologik lug’ati. – Toshkent: G’G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

3. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 1985. 158-b.

4. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 2018.

5. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler sózligi. – Nókis: “Ilimpaz”, 2023. 80-b.

6. Aynazarova G., Atabaeva G. Qaraqalpaq tilinde sanlıqlar menen kelgen frazeologizmler sózligi. – Nókis: “Ilimpaz”, 2023. 68-b.

REZYUME. Maqolada hozirgi o’zbek va qoraqalpoq adabiy tillarida komponent tarkibi turli xil bo’lgan sinonim frazemalarni nazariy ham amaliy jihatdan misollar asosida isbotlangan.

РЕЗЮМЕ. В статье на примерах теоретический и практический обоснованы синонимические словосочетания с разными компонентами в современных узбекском и каракалпакском литературных языках.

SUMMARY. The article provides theoretical and practical examples of synonymous phrases with different components in modern Uzbek and Karakalpak literary languages.